

**OLIV TA'LIM MUASSASALARIGA
KIRUVCHILAR UCHUN**

SAVOLLAR KITOBI

ABITURIYENT: _____
F.I.O. Imzo

ABITURIYENT DIQQATIGA!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan boyicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.

Kitob tipi: 32

FANLAR:

Blok 1: Ona tili va adabiyot

Blok 2: Biologiya

Blok 3: Kimyo

Savollar kitobi raqami: **1701305**

Toshkent – 2017

ONA TILI VA ADABIYOT

1. Qaysi gap tarkibida fe'ning munosabat shakli vazifasida qo'llangan ko'makchi morfema sonor undosh tovush bilan ifodalangan?
A) *Otarning bolasi bo'lma, odarning bolasi bo'l.*
B) *Nima qilay, o'rgilay, aytсам, tilim kuyadi, aytmasam - dilim.*
C) *Kimki buni tushunmabdi, u katta xatoga yo'l qo'yadi.*
D) *Bir tishlam non gadosi bo'lib, birovlarning eshigiga borgan vaqtlarim ham bo'ldi.*
2. Qaysi gapda yasama so'zni tobelantirgan ibora ishtirok etgan?
A) *Haqiqiy vatanparvarlar jon kuydirib mehnat qilishdan aslo charchamaydilar.*
B) *Vatanga bo'lgan muhabbatim meni xorijliklar yutug'idan ko'z yumishga majbur qilmaydi.*
C) *O'z vataniga dog' tushirish uni sotish degan so'z.*
D) *Vatanni ko'z qorachig'iday asrashni ma'rifatli millatlardan o'rganish kerak.*
3. Qaysi gapda tobe va hokim qismlari bir xil so'z turkumidan yasalgan sodda yasama so'zlar bilan ifodalangan to'ldiruvchili birikma mavjud?
A) *Insonda hayotning mohiyatini tushunish qobiliyati tarixni anglashdan boshlanadi.*
B) *Saxiylik kishilar o'rtasidagi ishonch va muhabbatdan hosil bo'ladi.*
C) *Olingan bilimlarni mustahkamlashga har doim intilmog'imiz darkor.*
D) *Bu so'roq qarshisida shaxsiy yetishmovchiliklarimni, turmush og'irliklarini unutaman.*
4. **Jadval** so'zidagi I undoshi qaysi xususiyatiga ko'ra boshqa undoshlarning hech qaysisi bilan bir umumiy guruhga mansub bo'la olmaydi?
A) *hosil bo'lish o'ruga ko'ra*
B) *jarangli yoki jarangsizligiga ko'ra*
C) *hosil bo'lish usuliga ko'ra*
D) *shovqinli yoki sonorligiga ko'ra*
5. Qaysi gapda uch xil gap bo'lagi fonetik o'zgarish asosida yozilgan?
A) *Tergovchilar bu qoidabuzarlik ayblanuvchining o'rnatilgan tartibni yaxshi anglamagani sababli yuzaga kelganini hisobga oldilar.*
B) *Beshafqat shamol sovuqdan qaltirayotgan daraxtning so'nggi yaprog'ini ham uchirib ketdi.*
C) *Atmosfera yo'qligi sababli Oy yuzasi yo haddan ziyod issiq, yo nihoyatda sovuq bo'ladi.*
D) *Tovushlarning shirin-achchig'i, Bordir hatto yumshoq-qattig'i.*
6. Tarkibida turlangan so'z qatnashmagan gaplar to'liq berilgan javobni aniqlang.
1. Bu voqea xuddi kechagina bo'lgandek, ammo darrov uch yil o'tibdi. 2. Chuqur va xayolchan ko'zlarida sirli va sehrli bir holat aks etadi. 3. Yigit to'satdan gindiraklab borib tizzalab qoldi. 4. Shu payt birdan eshik sharaqlab ochildi-yu, Erto'ev kirib keldi.
A) 1, 3, 4 B) 3, 4 C) 1, 3 D) 1, 2, 4
7. **Qorabotir yurtning erkasi, jo'ralarning serkasi edi.**
Ushbu gapdagi qaralmishlar haqida noto'g'ri hukmi aniqlang.
A) *egani tobelantirib kelgan*
B) *uyushiq murakkab kesim vazifasini bajargan*
C) *aniqlovchi vazifasini bajargan*
D) *aniqlovchini tobelantirib kelgan*
8. Quyidagi qaysi fe'llarning yetakchi morfemasi ot so'z turkumiga oid so'z bilan omonim bo'la oladi?
1) inmoq; 2) yashirinmoq; 3) chaqmoq; 4) saqlamoq; 5) qopmoq
A) 1, 4, 5 B) 1, 2, 3, 5 C) 3, 4, 5 D) 1, 5
9. Qaysi qatordagi juftlik bir umumiy ma'noni ifodalay oladi?
A) *ganch-boylik* B) *yaroqli-qurolli* C) *xiyla-nayrang* D) *adil-tikka*
10. Qaysi gapda ajtarib ko'rsatilgan so'zning ma'nosi narsa va hodisalar o'rtasida makon va zamondagi o'zaro aloqadorlik asosida ko'chgan?
A) *Ko'ngliga qarayverib-qarayverib tug'ishganlaridan hambegona bo'ldim.*
B) *Avtomobilningeshigini ochib do'stini chiqarib oldi.*
C) *Hammamizning mana shukalondimog'* yig'it aybdor, - degan fikr o'tadi xayolidan.
D) *Kechagi futbol bahsida O'zbekistonning* qo'li baland keldi.
11. Martaba berganda fe'l ham bersa keng,
Adl-u muruvvatdan qilmasa judo.
Dargohi kattalar bor bo'lsin,
lekin Kichik kattalardan asrasin xudo.
Ushbu she'riy parchada otlashmagan sifatlar necha o'rinda qo'llangan?
A) 4 B) 2 C) 3 D) 1
12. To'tini o'z ismini aytishga o'rgatishadi. Ismni ko'p qaytarishadi. Keyin bir kuni, ehtimol, bexosdanmi yoki o'z kayfiyatini bildirish uchunmi, u talab qilinayotgan so'zni aytib yuboradi va shu ondayoq mukofot oladi.
Berilgan parchadagi fe'llar tarkibida qaysi nisbat qo'shimchasi qatnashmagan?
A) *o'zlik* B) *majhul* C) *birgalik* D) *orttirma*
13. Daraxtni gullata bilishgina emas, balki undan mo'l va shirin hosil yetkazib berish ham san'atdir.
Ushbu gapda qatnashgan yordamchi so'z turkumiga xos birliklar haqidagi noto'g'ri fikri aniqlang.
A) *yuklamalarning ikki ma'noviy turi qatnashgan*
B) *yuklamalar har xil gap bo'lagi vazifasini bajargan so'zlarga qo'shimcha ma'no yuklagan*
C) *mazmuniy munosabat ifodalashga ko'ra bog'lovchining ikki turi qatnashgan*
D) *sof va vazifadosh bog'lovchi qatnashgan*
14. Quyidagi yordamchi so'zlardan nechtasi vazifadosh ko'makchilarga mansub?
uzra, singari, umuman, qadar, sira, muvofiq, qarab, o'zga, asosan
A) 4 ta B) 6 ta C) 3 ta D) 5 ta
15. Har bir gapi tarkibida yasama so'z(lar) qatnashgan qismlari uyushgan murakkab qo'shma gapni aniqlang.
A) *Yer shivirlaydi, yulduz jivirlaydi, o'lkamizga bahor keladi.*
B) *Sharros yomg'irlar havoni tozalaydi, gulduros momaqaldiroq yurakka jo'shqinlik beradi, qushlar navosi insonga kuch-quvvat ato etadi.*
C) *Xomushlik salomatlik sababidir, chunki ko'p so'zlaguvchi oqil kishi bo'lsa ham, avom uni nodon der.*
D) *Qayerda mehnat yaxshi tashkil qilingan bo'lsa, jamoa a'zolari o'rtasida ahillik va hamjihatlik bo'lsa, u yerda yashash ham zavqli bo'ladi.*
16. Berilgan so'zlardan nechtasida nuqtalar o'rniga chuqur til orqa sirg'aluvchi jarangsiz undosh qo'yilishi kerak?
...alifa, ...ilvatgoh, mu...olif, ...assos, e...rom, shuku...li, ta...sin
A) to'rtasida B) ikkitasida C) beshasida D) uchtasida
17. Hamma narsa uylar devorlar daraxtlar qorong'ulikka jimgina cho'kdi.
Ushbu gapda qanday tinish belgilari qo'llanadi?
A) *ikki nuqta, vergul, tire*
B) *tire, vergul, tire*
C) *ikki nuqta, vergul, vergul*
D) *vergul, vergul, tire*
18. Uyushiq bo'laklar kesimga bevosita tobelangan gapni aniqlang.
A) *Labda tabassum-u ko'zda yosh bilan Senga talpinaman, buyuk nabiram...*
B) *Hattoki tuyg'usiz, chirik xazon ham Yashil po'panakdan bog'labdi qanot.*
C) *Xira tuman orasida cho'g'day miltirar, Jayron quvib, jayron yanglig' o'tgan kunlarim.*
D) *Amu bilan Sirdan suv ichgan, Zarafshonni loylatib kechgan Chavandozlar bordir bu elda.*
19. Kechagi g'amin o'ylasa obdon,
Bukchayib qolardi bugun odamzod.
Ushbu gapda ravish turkumiga oid so'zlarning sintaktik vazifasi ketma-ketligi to'g'ri berilgan javobni aniqlang.
A) *aniqlovchi, hol, hol* B) *aniqlovchi, hol* C) *hol, hol, hol* D) *hol, hol*
20. Kim bo'lsa hasadchi, yuragi qaro,
Ko'rmas yaxshilarga yaxshilik ravo.
Ushbu parchada qanday munosabatli so'z birikma(lar)ida tobe qism ham, hokim qism ham yasama so'zlar bilan ifodalangan?
A) *boshqaruv* B) *bitishuv* C) *boshqaruv va bitishuv* D) *moslashuv va boshqaruv*
21. Quyidagi she'riy parchada ishtirok etgan yasama otlarning sintaktik vazifasi haqidagi to'g'ri hukmi belgilang.
Yoshlik - gul-u gulg'uncha ekan, Bu gul olam turguncha ekan, Yoshlik - behad tushuncha ekan, Payoni yo'q g'aruncha ekan.
A) 2 o'rinda ega, 2 o'rinda kesim
B) 2 o'rinda ega, 1 o'rinda kesim
C) 3 o'rinda ega, 2 o'rinda kesim
D) 3 o'rinda ega, 3 o'rinda kesim

22. Berilgan qo'shimchalardan qaysilari ismning va fe'lning munosabat shakli sifatida o'zaro omonim bo'la oladi?
1) -sa, 2) -k, 3) -m, 4) -ng, 5) -miz, 6) -ing, 7) -ngiz
A) 2, 3, 5, 6 B) 1, 3, 5, 6 C) 1, 2, 4, 7 D) 3, 4, 5, 7
23. Quyidagilar orasidan so'z yasovchi va shakl yashovchi sifatida o'zaro omonim bo'la oladigan qo'shimchalari ko'rsating.
1) -siz, 2) -ona, 3) -lab, 4) -larcha, 5) -xon, 6) be-
A) 1, 3, 4, 5 B) 1, 2, 5 C) 1, 2, 3, 5 D) 1, 2, 3, 4, 5, 6
24. Taqdir kuldi,
o'lim tegmasdan o'tib ketdi,
qilmadi jur'at.
Netay, axir so'nggi minutda
pistoletim qildi xiyonat.
She'riy parchadagi yasama so'zlar haqidagi noto'g'ri fikrni aniqlang.
A) yasama so'zlar uchta mustaqil so'z turkumiga tegishli.
B) 2ta affiksatsiya usulida, 2ta kompozitsiya usulida yasalgan so'zlar ishtirok etgan.
C) Sodda yasama so'zlar bir turkumga oid so'zlardan hosil qilingan.
D) Uchta yasama so'z gaping bosh bo'laklari vazifasida kelgan.
25. Qaysi javobda Oybekning "Dilbar davr qizi" asari bilan bir xil janrdagi asar nomi berilgan?
A) "Baxtigul va Sog'indiq"
B) "Nur qidirib"
C) "Mahmud Tarobiy"
D) "Bolalik"
26. G'azali musajja usulida bitilgan g'azalni belgilang.
A) "Jong'a chun dermen... " g'azali (Navoiy)
B) "Shifoyi vasl qadrin..." g'azali (Fuzuliy)
C) "Mani jondan o'sondirdi..." g'azali (Fuzuliy)
D) "Mani jondan o'sondirdi..." g'azali (Fuzuliy)
27. Qaysi ijodkor adabiyotni "toza ma'rifat suvi", "buloq suvi" deb tariflaydi?
A) A. Oripov B) Avloniy C) Cho'lpon D) O'. Hoshimov
28. Bog' tasviri berilgan quyidagi parcha qaysi dostonidan olingan?
"Bir qancha yo'l yurib edi, oldidan chiqdi katta bir bog', bir yog'i chorbog', juda katta - kalondimog', ko'rganlar farog'..."
A) "Alpomish"dan B) "Kuntug'mish"dan C) "Ravshan"dan D) "Rustamxon"dan
29. Qaysi adib, zamondoshlarining eslashlaricha, qo'shiqni o'rmiga qo'yib kuylagan, ko'plab milliy va Ovrova musiqiy asboblari mahorat bilan chala olgan, o'zi yozgan qaysi pyesalarga rejissorlik qilgan, ularda asosiy rollarni o'ynagan?
A) Behbudiy B) Hamza C) Fitrat D) Abdulla Avloniy
30. Nasimi jonfizo bemorlarga, ey sabo, yetkur,
Xazon pajmurda bo'lganlarga bir obi havo yetkur,
Qo'y emdi biz begonani, bir oshno yetkur,
Gadomiz, boshlar uzra soya solsun, Humo yetkur...
Ushbu she'riy parcha muallifini ko'rsating.
A) Zavqiy B) Avaz O'tar C) Muqimiy D) Furqat
31. Quyidagi misralar qaysi adib qalamiga mansub?
"Menda qolsa, ijod jarayonida qandaydir ilohiyot bor, degan bo'lur edim.
Haqiqiy ijodkor Xudo ko'ngliga solganda qo'lga qalam oladi. Chinakam badiiy asar yozilmaydi, tug'iladi!"
A) O'tkir Hoshimov B) Abdulla Qahhor C) Odil Yoqubov D) Asqad Muxtor
32. "Dunyoda kim yomonlik ko'rmagan deysiz? Umdsizlik – bu g'ayratsizlikdir. Dunyoda hech muqim narsa yo'q, shuningdek, yomonlik ham mudom bo'lmaydi. Axir, qori qalin qahraton qish ketidan ko'k maysali, tiniq suvli yoz kelmasmu?"
Ushbu ibratli fikrlar keltirilgan asar nomi va muallifini toping.
A) "Hiybat ul – haqoyiq", Ahmad Yuknakiy
B) "Devonu lug'ot it – turk", Mahmud Koshg'ariy
C) "Nasihathlar", Abay
D) "Qutadg'u bilig", Yusuf Xos Hojib
33. Xotimasida "navro'z oyi" da tugatilganligi zikr etilgan asarni aniqlang.
A) "Latofatnoma" B) "Qutadg'u bilig" C) "Muhabbatnoma" D) "Suhayl va Guldursun"

34. Ko'nglum g'am ila to'q ayla, yo Rab!
Ishq ichra meni yo'q ayla, yo Rab!
Ushbu parcha Alishe Navoiy ijodidagi qaysi adabiy qahramon tilidan aytilgan?
A) Shirin B) Majnun C) Farhod D) Layli
35. Shoira Anbar Otin qaysi mashhur mumtoz shoiramizning jiyani bo'lgan?
A) Maknuna B) Dilshodi Barno C) Nodirabegim D) Jahon otin Uvaysiy
36. Qaysi baytlarda radif mutlaq qofiyadan keyin kelgan?
1. Shifoyi vasl qadrin hajr ila bemor o'landan so'r,
Zuloli zavq shavqin tashnayi diydor o'landan so'r.
2. Ko'rgali laling aqiqin ko'nglum ul yon tortadur,
Bu yamon andishaliqni go'yo qon tortadur.
3. Nigoro, sensizin mandin ne hosil,
Agar jon bo'lmasa, tandin ne hosil?
4. Ey orazi shams-u qamarim, netti, ne bo'ldi?
Ey tishlari dur-u gavharim, netti, ne bo'ldi?
A) 2, 3, 4 B) 3, 4 C) 2, 3 D) 1, 4

BIOLOGIYA

37. Quyonlarda quloq suprasining uzunligi 2 juft polimer genlarga bog'liq. Agar quloq suprasining uzunligi 24 sm li $A_1A_1A_2a_2$ genotipli urg'ochi quyon va quloq suprasining uzunligi 16 sm li $a_1a_1A_2a_2$ genotipli erkak quyon bilan chatishtirilsa, avlodning necha foizini quloq suprasining uzunligi 20 sm li quyonlar tashkil qiladi?
A) 25 B) 75 C) 50 D) 12,5
38. Tishlarning qoramtir rangi ikkita dominant gen ta'sirida rivojlanadi. Bu genlarning biri autosomada, ikkinchisi X xromosomada joylashgan. Bu belgining autosomada joylashgan turiga ega bo'lgan erkak va jinsga birikkan turiga ega bo'lgan ayol oilasida tishlari normal bo'lgan qiz va o'g'il tug'ildi. Ushbu oilada tug'ilgan farzandlar orasidan tishlari normal o'g'il bolalarning tug'ilish ehtimolini (%) toping?
A) 12,5 B) 50 C) 25 D) 75
39. Itning koker zoti junining qora rangi dominant noallel A va B genlarga bog'liq. Faqat A genining dominant holatda bo'lishi junning malla, B genining dominant holatda bo'lishi junning jigarrang, dominant genlarning uchramasligi junning oq rangda bo'lishini ta'minlansa, digeterozigota genotipli organizmlar o'zaro chatishtirilgandan olingan avlodning necha foizini fenotip va genotip jihatdan ota-onadan o'xshash organizmlar tashkil qiladi?
A) 31,25 B) 37,5 C) 25 D) 75
40. DNK qo'sh zanjirida 180 ta vodorod bog'i bo'lib, uning 1/3 qismi guanin va sitozin orasida joylashgan bo'lsa, DNKdagi guanin nukleotidlar sonini toping.
A) 60 B) 20 C) 40 D) 80
41. Mitoxondriyalarda ATF sintezi... sodir bo'ladi.
1) aerob sharoitda; 2) kislorod ajralishi bilan; 3) glyukozaning parchalanishi hisobiga; 4) sut kislotaning hosil bo'lishi bilan; 5) CO_2 ajralishi bilan; 6) sut kislotaning parchalanishi hisobiga; 7) CO_2 ning sarf bo'lishi bilan
A) 3,5 B) 1,2,3 C) 2,4,7 D) 5,6
42. Shimpanze zigotasining birinchi marta ekvatorial bo'linishidan hosil bo'lgan blastomerlarda necha juft autosomal bo'ladi?
A) 184 B) 368 C) 192 D) 288
43. Do'lanadagi oila (a) sinf (b) ga xos xususiyatlarni aniqlang.
1) murakkab gulqo'rg'on; 2) ildiz tizimining turi; 3) barglarining tomirlanishi; 4) meva turi; 5) urug' murtakining tuzilishi; 6) poyaning ichki tuzilishi; 7) barglarning novdada joylashishi
A) a-1,7; b-4,5
B) a-4,7; b-5,6
C) a-3,5; b-4,2
D) a-1,6; b-3,4
44. Hayvonlarning kelib chiqishi haqidagi to'g'ri fikrni belgilang.
A) Erkin yashovchi qadimgi yassi chuvalchanglardan ko'p tuklilar, ulardan esa kam tuklilar kelib chiqqan
B) Qadimgi ichaksiz kiprikli chuvalchanglar parazit yashashga moslanishi tufayli so'rg'ichlilar, ulardan esa tasmasimon chuvalchanglar kelib chiqqan
C) Qadimgi koloniya bo'lib yashovchi bir hujayrali xivchinlilardan gidrasimonlar, korall poliplari va meduzalar kelib chiqqan.

- D) *Qadimgi ichaksiz yassi chuvalchanglardan to'garak chuvalchanglar, ulardan halqali chuvalchanglar kelib chiqqan.*
45. Peshonasi past, qosh usti suyagi bo'rtib chiqqan, pastki jag'i katta, tishlari yirik, iyagi rivojlanmagan, miyasining hajmi 850-1220 sm³ bo'lgan. Ushbu ta'rif odamning qaysi ajdodlariga mansub?
A) *kromanyon* B) *neandertal* C) *pitekanthrop* D) *sinantrop*
46. Biosfera tirik moddasining funksiyasi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) temir bakteriyalarining xemosintez qilishi; 2) atmosfera tarkibida kosmik chang zarralarining uchrashi; 3) hayvonlarning kislorod yutib CO₂ chiqarishi; 4) vulqonlarning otilishidan tog' jinslarining hosil bo'lishi; 5) geterotroflarning tayyor organik modda bilan oziqlanishi; 6) ildizoyoqli sodda hayvonlarda kalsiyning to'planishi
A) 1,2,3 B) 2,4,5 C) 1,3,6 D) 4,5,6
47. Abiotik omillarning ta'siri to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
a) namlik; b) topografik;
1) gledichiyning o'zidan fitonsid ajratib chiqarishi; 2) zamburug'ning penitsill ishlab chiqarishi; 3) tog'larda yashovchi odamlar qonida eritrotsitlarning ko'p bo'lishi 4) o'simliklar o'rtasida yorug'lik uchun kurash; 5) yorug'lik yetishmasligi natijasida odamlarda D avitaminsiz rivojlanishi; 6) yomg'ir chuvalchangining yozda pillaga o'rilib uyquga ketishi.
A) 1,2,5 B) 2,3,6 C) 1,2,4 D) 3,5,6
48. Nomozshomgul o'simligiga tegishli bo'lmagan ma'lumotlarni aniqlang.
1) gulining qizil rangda bo'lishi retsessiv gomozigota holatdagi genlarga bog'liq; 2) hujayrasida polimeraza fermentlari yordamida polinukleotidlar sintez qilinadi; 3) konsument sifatida oziq zanjiri tarkibiga kiradi; 4) sitoplazmasida 180 g glukozadan achish jarayonida 200 kJ energiya hosil bo'ladi; 5) hujayra qobig'ini tashkil etuvchi polimerning monomeri glukozadan tashkil topgan
A) 2,5 B) 3,4 C) 1,3 D) 1,4
49. Agar poliomiyelit virusi orqa miyaning faqat bel segmentlarini zararlangan deb tasavvur qilsak, bu holatda quyidagi qaysi muskullar falajlanishi kuzatilmaydi?
1) bo'yinning teri osti muskuli; 2) sonning to'g'ri muskuli; 3) ko'zning aylana muskuli; 4) diafragma muskuli; 5) boldirning uch boshli muskuli 6) oyoq panjasini yozuvchi muskul; 7) deltasimon muskul; 8) qorinning qiyshiq muskuli; 9) tashqi qovurg'alararo muskul
A) 2,6,8 B) 6,9 C) 1,4,7 D) 3,5
50. III qon guruhiga ega rezus musbat, sog'lom o'g'il bolaning katta qon aylanish doirasi arteriyalardagi qon plazmasida qanday moddalar bo'ladi?
A) *antitanalar, insulin, agglyutinin a, gemoglobin, glyukoza, fermentlar*
B) *gormonlar, vitaminlar, antitanalar, glyukoza, agglyutinogen B*
C) *antigemofil omil, agglyutinin β, gormonlar, vitaminlar, rezus omil*
D) *aminokislota, mochevina, kreatinin, tiamin, agglyutinin*
51. Odamdagi o'mrov osti muskulining bo'yinning teri osti muskulidan farqini toping.
1) vegetativ nerv sistemi orqali boshqariladi; 2) joylashuv ko'ra to'sh-o'mrov so'rg'ichsmon muskul bilan bir guruhga kiradi; 3) joylashuviga ko'ra diafragma muskuli bilan bir guruhga kiradi; 4) gavdaning ko'krak muskuli hisoblanadi; 5) suyakka birikadi; 6) boshning harakatini ta'minlaydi; 7) qo'lining harakatida ishtirok etadi
A) 1,4,5 B) 1,5 C) 2,6 D) 3,4,7
52. Odam organizmida A vitaminining yetishmasligi natijasida...
A) *enterit kasalligi kelib chiqadi, epiteliy to'qimasining yangilanishi buziladi*
B) *milklar qonaydi, tishlar to'kiladi, traxeyaning shilliq pardasi yallig'lanadi*
C) *nerv tolalari falajlanadi, bronxlarning shilliq pardasi yallig'lanadi*
D) *qo'l-oyoq muskullari uvushib og'riydi, nerv tolalari falajlanadi*
53. Sezgi analizatorlari haqidagi noto'g'ri fikrni aniqlang.
A) *Terining derma qavatida sovuqni va siypalashni sezuvchi retseptorlar issiqni va og'riqni sezuvchi retseptorlarga nisbatan chuqurroq joylashgan.*
B) *Gipermetropiya keksalarda ko'z gavhari do'ngligining ortib ketishi tufayli yuzaga keladi.*
C) *Quloqning suyak labirinti bilan parda labirinti orasida perilimfa, parda labirinti ichida endolimfa suyuqligi bo'ladi.*
D) *Harakat analizatorining oliy nerv markazi bosh miya katta yarimsharlari po'stlog'ining orqa markaziy egatida joylashgan.*
54. Qaysi javobda faqat o'pkasi yordamida nafas oluvchi organizmlar keltirilgan?
A) *chumolixo'r, tapir, lama, salamandra*
B) *katta kivi, yexidna, triton, kazuar*
C) *suvilon, gatteriya guattara, ilonbo'yin toshbaqa, echkiemar*
D) *kolibri, yashil qurbaqa, malla revun, ko'l baqasi*
55. Qisqichbaqada ham, butli o'rgimchakda ham qorin qismida joylashgan a'zolari ko'rsating.
1) zahar bezi; 2) oshqozon; 3) ichak; 4) jinsiy bez; 5) traxeya; 6) o'pka xaltasi; 7) yurak; 8) nerv zanjiri; 9) so'gallar; 10) yurish oyoqlari
A) 5,6 B) 3,8 C) 1,2,10 D) 4,7,9
56. Alligator bilan bir sinfda (a) va begemot bilan bir turkumga (b) birlashtirilgan hayvonlar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.
A) *a-gekkon, kobra, gaviyal; b-arxar, g'izol, zubr*
B) *a-And kondori, kobra, ilonbo'yin toshbaqa; b-arxar, bizon*
C) *a-aureliya, kabarga, yelik; b-to'ng'iz, gibbon, oqcha*
D) *a-kaputsin, kapcha, gatteriya guattara; b-muflon, g'izol, bizon*
57. Ko'rshapalak haqidagi to'g'ri ma'lumotlarni belgilang.
1) oldingi oyoqlari salamandranning oldingi oyoqlari bilan o'zaro gomologik organ; 2) o'ljasini havoda og'zi bilan tutib ovlaydi; 3) ko'rgalak bilan bir sinfga mansub; 4) tuxumlaridan jish bola chiqadi
A) 3,4 B) 2,4 C) 1,3 D) 1,2
58. Hayvonlarning kelib chiqishi haqidagi noto'g'ri fikrni belgilang.
A) *Erkin yashovchi qadimgi yassi chuvalchanglardan ko'p tuklilar, ulardan esa kam tuklilar kelib chiqqan.*
B) *Yassi kiprikli chuvalchanglarning parazit yashashga moslanishi tufayli so'rg'ichlilar va tasmasimon chuvalchanglar kelib chiqqan.*
C) *Qadimgi koloniya bo'lib yashovchi bir hujayrali xivchinilardan gidrasimonlar, korall poliplari va meduzalar kelib chiqqan.*
D) *Qadimgi yassi chuvalchanglar tanasida tana bo'shlig'i va orqa chiqaruv teshigi payda bo'lishi bilan to'garak chuvalchanglar kelib chiqqan.*
59. Quyidagi organizmlar orasidan tashqaridan kimyoviy energiya qabul qiladigan organizmlar aniqlang.
1) bezgak paraziti; 2) ossillatoriya; 3) yo'ng'ichqa; 4) xlamidomonada; 5) amyoba; 6) pseudomonas; 7) ichak tayoqchasi
A) 3,5,7 B) 3,4,5 C) 1,5,6 D) 2,4,6
60. Xloroplastlarga ega bo'lmagan eukariot organizmlarga zarar keltiruvchi eukariot organizmlarni aniqlang.
1) qoqshol qo'zg'atuvchisi; 2) nozema; 3) vertitsill; 4) mikoz qo'zg'atuvchisi; 5) leyshmaniya; 6) zang zamburug'i; 7) tripanosoma
A) 2,7 B) 3,6 C) 1,5 D) 1,4
61. Quyidagi organizmlar diploid hujayrasi 2- va 5-juft gomologik xromosomalarining har biri bittaga kamaysa, ular kariotipida nechta xromosoma bo'ladi?
a) makkajo'xori; b) suvarak; c) qalampir
A) *a-22; b-50; c-50*
B) *a-18; b-46; c-46*
C) *a-16; b-50; c-50*
D) *a-20; b-44; c-44*
62. Quyida keltirilgan madaniy o'simliklar orasidan bitta markazdan kelib chiqqan o'simliklarni aniqlang.
1) tamaki; 2) sabzi; 3) arpa; 4) sholi; 5) ananas; 6) banan; 7) oshqovoq; 8) kartoshka
A) 2,6,8 B) 1,5,8 C) 2,4,7 D) 1,3,6
63. Reduplikatsiya (I) va denaturatsiya (II) uchun mos keluvchi ta'riflarni juftlang.
a) oqsillarning tabiiy holatini yo'qotishi; b) DNKning ikki hissa ortishi; c) xromosoma ayrim qismlarining ortishi; d) xromosoma o'rta qismining ajralishi
A) *I-d; II-c*
B) *I-c; II-b*
C) *I-b; II-a*
D) *I-b; II-d*
64. Yeryong'oqning bargi (a), guli (b) va mevasi (c) qanday tuzilgan?
A) *a-juft patsimon, yonbargchali; b-sariq rangda, to'g'ri gul; c-quruq, dukkak meva*
B) *a-juft patsimon, yonbargchasi; b-sariq rangda, c-quruq, qo'zoq meva*
C) *a-juft patsimon, yonbargchali; b-qiyshiq gul; c-quruq meva, pallalari*

- orasida to 'sig' i yo 'q*
D) *a-toq patsimon, yonbargchali; b-sariq rangda, to 'g' ri gul; c-quruq, dukkak meva, pallalari orasida to 'sig' i bor*
65. Barglari novdada qarama-qarshi joylashgan, gullari qiyshiq o'simliklarni aniqlang.
1) kiyiko't; 2) beda; 3) loviya; 4) marmarak; 5) isirg'ao't; 6) nastarin; 7) rayhon; 8) afsonak
A) 2,3,5 B) 1,2,6,7 C) 1,6,7 D) 3,4,6,8
66. Karamdoshlar oilasi vakillarining ra'nodoshlar oilasi vakillaridan farqlarini toping.
1) gulqo'rg'oni murakkab, a'zoli; 2) barglari yonbargchali; 3) gullari to'g'ri, ikki jinsli; 4) shingil to'pgul hosil qiladi; 5) changchilari ikkita halqada joylashgan; 6) bargalari doim oddiy; 7) bargalari poyada ketma-ket joylashgan
A) 1,2 B) 3,4,7 C) 2,3,6 D) 5,6
67. Lolasiimonlar (1), archadoshlar (2), ituzum (3) va qoqio'tdoshlar (4) sistematik birliklarga mansub o'simliklarni aniqlang.
A) 1-qo'ng'irbosh; 2-sharq sauri; 3-kartoshka; 4-bo'znoch
B) 1-oq shuvoq; 2-sharq sauri; 3-baqlajon; 4-bo'yadaron
C) 1-piyozli arpa; 2-sekvoyadendron; 3-baliqko'z; 4-kakra
D) 1-boychechak; 2-qarag'ay; 3-qizil ituzum; 4-qoqio't
68. Spirogira (I) va ossillatoriya (II) uchun xos bo'lgan belgilarni toping.
1) hujayra markazi xujayra bo'linishida ishtirok etadi; 2) tarkibida xlorofill pigmenti mavjud; 3) erkin azotni o'zlashtiradi; 4) irsiy material yadroda joylashgan; 5) donador endoplazmatik to'rda oqsillar sintezlanadi; 6) mitoxondriyada kislorodli oksidlanish sodir bo'lad
A) I-3,6; II-4,5 B) I-1,4; II-5,6 C) I-3,5; II-2,4 D) I-3,6; II-2,4
69. Zuhrosoch o'simligida sporadan rivojlanuvchi bo'g'inda qanday qismlar hosil bo'ladi?
1) ildizpoya; 2) barg; 3) poya; 4) rizoid; 5) arxegoniy; 6) anteridiy; 7) murtak; 8) sorus; 9) sporangiy; 10) gametalar
A) 5,6,7 B) 4,5,10 C) 1,2,3 D) 7,8,9
70. Organizmlarning qaysi sistematik guruhlari aromorfozlar natijasida paydo bo'lgan?
1) to'garak chuvalchanglar; 2) qisqichbaqasimonlar; 3) ayiqsimonlar; 4) o'rgimchaklar; 5) qo'lqanotlilar; 6) hasva qandalasi; 7) o'rgimchaksimonlar; 8) terili toshbaqa
A) 1,2,7 B) 1,3,4 C) 3,5,8 D) 3,6,7
71. Bitta biografik viloyatda tarqalgan hayvonlarni belgilang.
A) *yalqov, tapir, vampir, pingvin, malla revun, shinshila, lemur, emu, vixuxol, skuns*
B) *kabarga, los, chittak, ot, yelik, bo'ri, kar, vixuxol, qunduz, tustovuq, zubr, maral, yovvoyi, qo'y*
C) *jirafa, agama, kapachi qush, echkamar, nosorog, zebra, lemur, zubr, martishka, begemot*
D) *antilopa, tapir, fil, bug'u, qirg'ovul, sezarka, tovus, orangutan, nosorog, echkamar*
72. Hind fili va Afrika filining (a), zubr va bizonning (b) kelib chiqishi qanday jarayonlar natijasi hisoblanadi?
A) *a-simpatik tur paydo bo'lish, b-simpatik tur paydo bo'lish*
B) *a-allopatik tur paydo bo'lish, b-simpatik tur paydo bo'lish*
C) *a-simpatik tur paydo bo'lish, b-allopatik tur paydo bo'lish*
D) *a-allopatik tur paydo bo'lish, b-allopatik tur paydo bo'lish*
- KIMYO**
73. Aminokislotalar soni 10 tagacha bo'lgan yuqori moekulyar birikmalarga... deyiladi.
A) *oligopeptid*
B) *polipeptid*
C) *dipeptid*
D) *oqsil*
74. Qaysi birikmalarda kislorod +2 oksidlanish darajasini namoyon qiladi?
A) KO_2
B) OF_2
C) H_2O_2
D) H_2O
75. Azotning o'zlashtirilishida va organizmdagi oksidlanish-qaytarilish jarayonlarida katta ahamiyatga ega metallni aniqlang.
A) *Co* B) *Fe* C) *Cu* D) *Mo*
76. DNK qo'sh spirali tarkibidagi nukleotidlarda 9600 ta uglerod atomi bor bo'lsa, adenin va timin nukleotidlar yig'indisini aniqlang. (nukleotidlarning 20% ini guanin tashkil etadi)
A) 1000 B) 1200 C) 1300 D) 800
77. Qaysi aminokislota qizdirilganda akril kislotaga hosil boladi?
A) β -aminopropan kislotaga
B) β -aminobutan kislotaga
C) α -aminopentan kislotaga
D) α -aminobutan kislotaga
78. 15,9 g akrilonitril gidrolizlanishidan necha gramm akril kislotaga hosil bo'ladi? ($\eta = 0,75$)
A) 43,2 B) 16,2 C) 21,6 D) 28,8
79. 0,8 mol noma'lum bir asosli karbon kislotaga eritmasiga Na metali qo'shilganda 17,92 litr (n.sh.) gaz ajralib chiqdi. Reaksiya sodir bo'lgan idishga yuqori bosim va temperatura ostida yetarlicha is gazi yuttirilishi natijasida hosil bo'lgan mahsulot birinchi reaksiyadan ajralgan organik mahsulot bilan 1:1 massa nisbatda ekanligi aniqlandi. Idishga yuttirilgan is gazi massasini (g) aniqlang.
A) 22,4 B) 11,2 C) 44,8 D) 33,6
80. $E_2(HPO_4)_3$ birikmasi tarkibidagi E ning elektron konfiguratsiyasi $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 3d^3$ bo'lsa, shu elementni aniqlang.
A) *Co* B) *Mn* C) *Fe* D) *Cr*
81. Qirralari $n=2$ sm bo'lgan kub shaklidagi aluminiy metali ($\rho = 2,7$ g/sm³) ishqor eritmasida eritilganda qancha (litr.n.sh.) gaz hosil bo'ladi?
A) 11,2 B) 4,48 C) 13,44 D) 26,88
82. Analitik kimyoda Seyzel usulidan foydalanib oddiy efilark tarkibidagi $-OCH_3$, $-OC_2H_5$ guruhlarni miqdoriy aniqlash mumkin. Etoksietanga 5,12 g konsentrlangan yodid kislotani qizdirib turib ta'sir ettirilsa, qancha (g) organik modda olinadi? (reaksiya unumi 75%)
A) 6,24 B) 4,68 C) 3,12 D) 2,34
83. Tarkibida 1 ta sp^3-sp^2 bog' va 16 sp^3 gibrid orbital tutgan benzol gomolog(lar) nitrolanganda necha turdagi mononitrobirikma hosil bo'ladi? (yon zanjirning nitrolanishi hisobga olinmasin)
A) 6 B) 4 C) 10 D) 8
84. Mol nisbatlari mos ravishda 1:2:3 bo'lgan buten-1, butin-1 va butandan iborat aralashma 5 kg bromli suvni rangsizlantiradi. Agar eritmadagi bromning massasi suvning massasidan 24 marta kichik bo'lsa, reaksiya uchun olingan butan massasini (g) aniqlang.
A) 14,5 B) 43,5 C) 11,6 D) 58
85. CH_4 va SiH_4 uchun umumiy bo'lgan xususiyat(lar)ni toping.
1) markaziy atomning gibridlanish; 2) markaziy atomning valentligi; 3) molekulaning fazoviy tuzilishi turi; 4) markaziy atomning oksidlanish darajasi
A) 1,2,3 B) 1,2,4 C) 1,2,3,4 D) 3
86. Eritmada gidroliz jarayonini tezlashtirish uchun qanday jarayonlarni amalga oshirish kerak?
1) eritmani suyultirish; 2) haroratni oshirish; 3) eritmani konsentrlangan holda saqlash; 4) teskari muhitli tuz qo'shish
A) 1,2,4 B) 1,3 C) 2,3 D) 3,4
87. Ammiak sintez qilish jarayonida reaktordagi bosim 30% ga kamaydi. Boshlang'ich aralashmadagi azot bilan vodorod miqdori stexiometrik nisbatda bo'lsa, reaksiyadan keyin hosil bo'lgan gazlar aralashmasining hajmiy tarkibini aniqlang.
A) 1/9; 2/3; 2/9
B) 2/5; 2/5; 1/5
C) 1/7; 3/7; 3/7
D) 1/4; 1/4; 1/2
88. Noma'lum elementning oxirgi elektronining kvant soni qiymati $n=3$; $l=2$; $m_l=x$; $m_s=-1/2$. Agar shu qiymatlar yig'indisi 3,5 ga teng bo'lsa, noma'lum elementni aniqlang.
A) *Ni* B) *Sc* C) *Ti* D) *Co*

89. 20,3 g $MgA_2 \cdot 6H_2O$ tarkibli kristallogidrat 39,2 ml suvda eritilganda eruvchanligi 19 g bo'lgan tuzning to'yingan eritmasi hosil bo'ldi. Tuzni aniqlang.
A) $MgBr_2$
B) MgI_2
C) $MgCl_2$
D) MgF_2
90. Jami bog'lar soni 24 ta bo'lib, σ va π bog'lar soni ayirmasi 18 ga teng bo'lgan modda formulasini ko'rsating
A) $Al(HSO_4)_3$
B) $(AlOH)_3(PO_4)_2$
C) $(Al(OH)_2)_2PO_4$
D) $Al(H_2PO_4)_3$
91. Harorat $25^\circ C$ dan $55^\circ C$ gacha ko'tarilganda reaksiya tezligi 9 marta oshgan bo'lsa, ushbu reaksiya xarorati har $15^\circ C$ ga oshganda reaksiya tezligi necha marta ortadi?
A) 5 B) 4 C) 2 D) 3
92. 25 g tuz saqlangan 50% li eritma olish uchun 40% li va 60% li eritmalar aralashtrildi. 40% li va 60% li eritmaları mos ravishda necha grammdan tuz saqlagan?
A) 10; 15 B) 7,6; 17,5 C) 15; 20 D) 2,5; 22,5
93. 200 g 14,2% Na_2HPO_4 eritmasiga yetarli miqdorda 100 ml H_3PO_4 eritmasi qo'shildi. Bunda olingan eritmadagi NaH_2PO_4 tuzining massa ulushi Na_2HPO_4 tuzining massa ulushidan 71/40 marta kam bo'ldi. Qo'shilgan H_3PO_4 eritmasining molyarligini (M) aniqlang.
A) 0,1 B) 0,3 C) 0,4 D) 0,5
94. Nitrat kislotaning 20% li va 60% li eritmaları bo'lib, 20% li eritmadagi kislotada massasi 60% li eritmadagi suv massasidan uch marta kam bo'lsa, ushbu eritmalar aralashtirilganda hosil bo'ladigan eritma konsentratsiyasini (%) aniqlang.
A) 38 B) 33 C) 44 D) 51
95. Eritmaning pH qiymati pOH qiymatidan 2,5 marta kam bo'lsa, pH qiymatini aniqlang.
A) 6 B) 4 C) 7 D) 5
96. Quyidagi qaysi moddalar alyuminiy xlorid bilan ta'sirlashmaydi?
A) natriy sulfid
B) natriy sulfat
C) natriy karbonat
D) natriy gidroksid
97. $MnO_2 + NaClO_3 + NaOH = Na_2MnO_4 + H_2O + \dots$ reaksiya tenglamasini tugallang va barcha koeffitsiyentlar yig'indisini hisoblang.
A) 34 B) 25 C) 19 D) 17
98. $CrSO_4$ tuzining suvdagi eritmasi orqali 3 soat davomida 2,68 amper tok kuchi o'tkazilsa, necha gramm xrom metali ajralib chiqadi? Tokka nisbatan unum 80%.
A) 6,24 B) 8,40 C) 9,36 D) 8,96
99. 46/42 g azot oksidi tarkibida 2/6 g azot bor. Shu oksid tarkibidagi azotning ekvivalentini aniqlang.
A) 7 B) 7/2 C) 14/3 D) 14/5
100. Natriy gidrokarbonat va kristall soda aralashmasi qizdirilganda massasi 31,8 g bo'lgan qattiq qoldiq hosil bo'ldi. Agar bunda 2,24 l (n.sh) CO_2 ajralgan bo'lsa, dastlabki tuzlar aralashmasi massasini (g) hisoblang.
A) 74 B) 38 C) 67,8 D) 48,6
101. 0,5 mol litiy va kadmiydan iborat aralashma tarkibidagi litiyning mol ulushi kadmiyning massa ulushiga teng bo'lsa, ushbu aralashmaning massasini (g) hisoblang.
A) 14 B) 8,05 C) 24,15 D) 28
102. $Na_2SO_4 \cdot xH_2O$ kristallogidrat ohista qizdirilganda $Na_2SO_4 \cdot 6H_2O$ tarkibli kristallogidrat hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan suv bug'i dastlabki kristallogidrat tarkibidagi suvning 2/5 qismini tashkil etsa, kristallogidrat tarkibini aniqlang.
A) $Na_2SO_4 \cdot 12H_2O$
B) $Na_2SO_4 \cdot 15H_2O$
C) $Na_2SO_4 \cdot 8H_2O$
D) $Na_2SO_4 \cdot 10H_2O$
103. $xCaCO_3 = yCaCO_3 + zCaO + zCO_2$ ifodada x, y, z, z koeffitsiyentlarning eng kichik butun qiymatdagi nisbatlari 2:1:1:1 bo'lsa, reaksiyaning mahsulot unumini (%) aniqlang.
A) 50 B) 53 C) 170 D) 85
104. Atomlarda soni teng bo'lgan argon, azot va silandan aralashtirilganda 3,4 mol shunday gaz aralashmasidagi argonning hajmini (l.n.sh) aniqlang.
A) 33,6 B) 22,4 C) 11,2 D) 44,8
105. Rux metalli ikki xil konsentratsiyali nitrat kislotalarda eritilganda ajralgan NO va N_2O larning hajmlari nisbatni 4:1 bo'lsa, reaksiyaga kirishgan Zn larning mol nisbatni aniqlang.
A) 3:8 B) 3:4 C) 3:2 D) 1:1
106. Laboratoriya natriy nitritdan azot olish jarayonida azot bilan birga qo'shimcha sifatida NH_3 , NO va O_2 gazlar aralashmasi ajralib chiqadi. Shu aralashma tarkibidagi azot (II) oksid qanday ajratib olinadi?
A) qizdirilgan mis ustidan o'tkazilib
B) nitrat kislotada eritmasidan o'tkazilib
C) temir (II) sulfat eritmasidan o'tkazilib
D) distillangan suvdan o'tkazilib
107. Alkan molekulyar massasi uning tarkibidagi uglerod atomlari massasidan (m.a.b) 8 m.a.b ga ortiq bo'lsa, alkanni aniqlang.
A) etan B) butan C) pentan D) propan
108. Noma'lum alkan stexiometrik nisbatda olingan kislorodda yondirilganda hosil bo'lgan moddalar miqdorining dastlabki moddalar miqdoriga mol nisbati 1,2 ga teng bo'lsa, alkanni aniqlang.
A) propan B) butan C) etan D) pentan